

МАКТАВ О'QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI O'RGATISH JARAYONIDA TARBIYANING MUHIM OMILI

Aliyeva Sarvinoz Abbosjon qizi

Farg'ona davlat univeristeti

Amaliy ingliz tili kafedrasи o'qituvchisi

Isaqova Ozodaxon Islom qizi

Farg'ona davlat univeristeti Ingliz tili va

Adabiyoti fakulteti 21.88 guruh talabasi

Annotation: Tarbiya - arabcha so'zdan olinga bo'lib, "parvarish qilmoq", "ta'lim bermoq", "odob o'rgatish" degan ma'nolarni anglatadi. Shuningdek, tarbiya shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'rildigan chora tadbirlar yigindisi.

Abstract: Education is derived from the Arabic word which means "to take care of", "to educate", "to teach manners". Also, education is a practical pedagogical process aimed at forming certain physical, mental, moral and spiritual qualities in a person; a set of measures taken to ensure that a person has the characteristics necessary for living in society.

Kalit so'zlar: tarbiya, mакtab, chet till, metod, oliv talim

Key words: education, school, foreign language, method, higher education

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan yangi 2023-yil O'zbekistonda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yili deb e'lon qilindi. Yil nomlanishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u o'zining tub ma'no-mazmuniga ega hisoblanadi. Negaki, davlatimiz rahbari o'z nutqida ta'lim sifatini oshirish – bu Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to`g`ri yo`li ekanligi haqida alohida to`xtalib o`tdi. Shuningdek, prezidentimiz tomonidan yana shunday fikrlar olg'a surildi:

"Ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta'lim dargohlariga borib, o'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, sifatni oshirish bo'yicha ular qo'ygan masalalarni birgalikda hal qilishimiz kerak. Biz kelgusi yil Davlat dasturiga xalqimiz ko'targan barcha masalalarni aniq yechimlari bilan kiritamiz. Ushbu jarayonlarda deputat va senatorlar, mahalla vakillari, ziyorolar,

yoshlar, tadbirkorlar va keng jamoatchiligidan faol bo‘lishlarini, yangi-yangi taklif va tashabbuslar bildirishlarini so‘rayman”¹

Darhaqiqat, bildirilgan fikrlar vaqtlar o‘tishi bilan o‘z isbotini topmoqda. Ya’ni bugungi kunda mamlakatmizda yoshlarga qaratilayotgan e’tibor taqsinga sazovordir. Negaki, yosh avlodlarni keng ko`lamda bilim olishlari uchun yurtimizda barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ularda yuksak aql-zakovat, halollik, mehr-oqibat kabi fazilatlarni shakllantirish jamiyatimizdagi eng asosiy vazifalarimizdan biridir. Shuningdek, ilmli, mas’uliyatli, intizomli, bag`rikeng va ijtimoiy faol yoshlargina yurtimiz porloq kelajagining ishonchli buniyodkorlari bo`la oladi. Yoshlarga e’tibor bu keljakka e’tibor demakdir. Haqiqattan ham, yoshlarimizning keljakda malakali kadr bo`lib yetishishlari uchun davlatimiz tomonidan qulayliklar yaratib berilmoqda. Misol sifatida, bilim oladigan ta’lim dargohlari: maktab, kollej va oliy o`quv yurtlarini olishimiz mumkin. Bu yerda ularning o`z ustida ishlashlari, o`zlarini rivojlantirishlari uchun barcha qulayliklar mavjud. Har bir o`quvchi yoki talaba o`z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, o`z sohasiga tegishli fanlarni tanlaydi va ular yuzasidan bilimini takomillashtirib boradi. Deyarli bugungi kunda yurtimizdagi ta’lim dargohlarida so`nggi texnologiyalarga asoslangan, zamonaviy o`qitish uslublari asosida darslar olib borilmoqda. Har bir fanni yuqori darajada o`zlashtirish uchun yangi o`qitish jarayonlari anchagina imkoniyatlar manbai demakdir. Masalan, ingliz tili fanini oladigan bo`lsak, hozirda butun dunyo bo`ylab tarqalgan va o`z mavqega ega bo`lgan tillardan biri. Bu tilga bo`lgan ehtiyoj juda ham katta. Aslida biror bir tilni o`rganishning o`zi bu yangi dunyonи kashf qilish degan gap. Til o`rganish orqali biz o`zimizga yangi imkoniyatlar eshigini ochamiz va maqsadlarimiz sari olg`a qadam tashlaymiz. Yuqorida aytib o`tganimdek, ingliz tilining ahmiyati nafaqat dunyo bo`ylab balki bizning ham mamlakatimizda juda kattadir. Yurtimizda xorijiy tillarni o`rganishga qaratilgan e’tibor sezilarli darajada oshdi. Bunga sabab O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbekiston Respublikasida Chet tillarini o`rganishni ommalshtirish, sifat jihatidan yangi bosqichga ko`tarish chora-tadbirlari to`g`rsida”gi qarori yaqqol namuna bo`lishi mumkin. Bundan ko`zlangan maqsad esa, professor-o`qituvchilar va iqtidorli talabalarni xorijiy tillarni o`rganish jarayoniga jalb etish va ular ishtirokida mahorat darslarini tashkil etish, shuningdek talabalar o`rtasida ko`rik tanlovlari va olimpiadalar tashkillashtirish kabilalaridir. Demak, har bir yosh avlodning ta’lim olish uchun keng ko`lamdagi islohotlar olib borilmoqda. Shuningdek, mana shunday imkoniyatlar davrida yana bir muhim omil jamiyatda o`z aksini topishi lozim. Bu esa ta’lim bilan doimo chambarchas bog`liq bo`lgan tarbiya hisoblanadi.

Tarbiya – insonning insonligini ta’minlaydigan eng qad va abadiy qadryatlardan biridir. Shuningdek, insonning butun bir hayoti davomida hamrohi, yo`lboshlovchisi

¹www.uzreport.uz O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning parlamentga yo’llagan murojaatnomasi

hamdir. Negaki, har bir jamiyat o`z oldiga yetuk, har tomonlama kamol topgan, o`zida butun ijobjiy va oliyjanob fazilatlarni birlashtirgan avlodni tarbiyalashni orzu qiladi. Yuqorida ta`kidlab o`tganimizdek, ta`lim va tarbiya doimo uzviy bog`liqdir va ular haqida so`z ketganda, buyuk ma`rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning **“Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat- yo falokat”** degan chuqur ma`noli fikri yodimizga bot-bot tushaveradi. Haqiqattan ham bu ikki tushuncha bir jassaddagi bel va qorin kabitdir. Ilm avvalo tarbiya bor joyda yuksaladi va o`z kamoliga yetadi. Faqat ta`limning o`zi insoniyatni har taraflama yetuk va komil bo`lishiga kifoya qilmaydi, avvalo tarbiya, keyin esa ta`lim. Negaki, inson tarbiyasiz bo`lsa, o`zi ega bo`lgan ta`limdan ezgu yo`llarda emas, balki yovuzlik va jinoyat yo`lida foydalanishi mumkin. Bu esa qandayin mudhish holat. Mana shunday holatlarni oldini olish uchun aynan, tarbiya nafaqat jamiyatning bir bo`g`ini bo`lgan oilada, balki maktablarda ustozlar tomonidan ham berib kelinmoqda. O`zaro hurmat va ehtirom bo`lgan joyda, bilim olishga bo`lgan ehtiyoj yuksalaveradi.

Hozirgi kunda chet tillarni o`rganishga bo`lgan ehtiyoj nafaqat oliv o`quv yurtlarida, balki maktablarda ham maqtasa arzigulik darajada rivojlanmoqda. Bunga sabab esa hech qachon ilm olishdan charchamaydigan, til o`rganishga ishtiyocoq baland bo`lgan yoshlarmizdir. Mana shunday serg`ayrat o`quvchilarga ta`lim va tarbiya beruvchi bu albatta muallim hiosblanadi. Shunday sharafli kasb egalarining o`rni bugungi kunda jamiyatimizda yuqori pog`onalardan birida. Ularning zahmatli mehnatlari evaziga O`zbekiston yoshlari yurtimiz bayrog`ini har sohada ko`klarga ko`tarishmoqda.

Maktablarda ingliz tilini o`rgatish bu kelajak uchun malakali kadrlarni yetishtirishdek mas`uliyatli vazifa. Chet tillini o`rgatish mobaynida o`qituvchidan talab etiladigan narsa nafaqat ta`lim balki, tarbiya hamdir. Farzand uchun yaqqol misol - uning ideal odami oiladi ota-onasi, maktabda esa o`qituvchisi bo`ladi. O`qituvchining vazifasi faqat ta`lim, bilim berishdan iborat emas, balki ilm bilan bir qatorda tarbiya, odob-axloq masalalari haqida ham namuna bo`lishi lozim. Masalan, maktablardagi ingliz tili dars jarayonlarini oladigan bo`lsak, bu fanga qiziqadigan bolalar tabiatan qiziquvchan, sho`x-shaddod va zamonaviy o`ylaydigan bo`ladi. Shuningdek, ular ingliz tilini o`rganish mobaynida, xorijiy davlatlar haqida ham ma'lumotga ega bo`lishadi. Masalan, chet davlatlarning urf-odatlari, an`analari, ta`lim tizimi, turmush tarzi va shunga o`xshash narsalar haqida keng ko`lamdagи fikrlarga ega bo`lishlari mumkin. O`qituvchi tomonidan beriladigan ma'lumotlar, ta`lim jarayonlari milliyligimizdan chetga chiqmagan holda amalga oshirilishi kerak. Nega aynan milliygimizga urg`u berilmoqda? Chunki hozirgi kunda ko`plab yoshlar ta`limda ilm olishdan ham ko`proq, biror bir mamlakatning turmush tarziga taqlid qilishmoqda. Mana shu holat aynan ingliz tilini o`rganish jarayonida kuzatilmoqda. Ba`zi bir hollarda, o`quvchilar tomonidan o`rganilayotgan til emas, balki ana o`sha tilda

so`zlashayotgan mamlakatlarning hayotiga urg`u berilmoqda. Bu esa bolalarning tarbiyasiga salbiy ta`sir ko`rsatishi mumkin. Albatta guruch kurmaksiz bo`lmaydi, misol tariqasida bizning ham mamlakatimizda uchrab turadigan ba`zi bir qo`shtirnoq ostidagi yoshlarni olishimiz mumkin. Ular tomonidan ana o`sha mamlakatning urfodatlariga, xulqi buzuq yoshlarning yashash tarziga, bemani qiliqlariga taqlid qilish bizning mentalitetimizga zid ravishda ish ko`rish bilan barobar deganidir. Mana shunday holatlar kuzatilmasligi uchun avvalo yoshlarga ilmdan ham ko`ra k`oproq tarbiya berishimiz lozim, doimo ularning odob-axloqi bilan shug`ullanishimiz, qayerga boryapti, kimlar bilan do`stlashyapti, nimalarni o`rganyapti degan bir talay savollarga doimo bizning javobimiz bo`lishi shart. Demak, bu vazifalarga javobgar shaxslar oilada ota ona bo`lsa, o`quv dargohlarida esa muallimlardir. Dars berish jarayonlarida o`quvchilarning bilim darajasini kengaytirishdan ham ko`ra, avvalo ularning tarbiyasiga ko`proq urg`u berishimiz lozim.

Har tomonlama yetuk, ham bilimli ham tarbiyalı yoshlarga kimning havasi kelmaydi deysiz. Albatta mana shunday komil insonlarning yetishib chiqishining dastlabki bog`ini tarbiya bo`lsa, ta`lim unga yordam beruvchi vositadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. TARBIYA JARAYONINING MOHIYAT VA MAZMUNI
 - 2022 / Gulmira Suvon Qizi Fayziyeva
2. MUNAVVAR QORI ABDURASHIDXONOVNING PEDAGOGIK QARASHLARI
 - 2022 / Mohichehra Xusanova
3. O'QUVCHILARDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA
 - 2022 / Parizoda O'Rinova
4. TARBIYANING MAQSAD VA VAZIFALARI
 - 2022 / Nilufar Abduvali Qizi Burxonova